

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING O'QUV-BILUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Saydaxmedova Barno Batirovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: batirovna.b88@gmail.com Tel.: +99894-94-617-69-78

ORCID: 0009-0000-4972-5246

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929527>

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli ta'lim muhitida talabalarning o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Pedagogik tadqiqotlar hamda zamonaviy raqamli ta'lim konsepsiyalarini qiyosiy o'rganish natijasida o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy guruhlariga tizimlashtirildi. Mazkur omillarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan konseptual yondashuv taklif etilib, ularning o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berildi.

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, o'quv-biluv kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, pedagogik omillar, texnologik omillar, shaxsiy omillar, tashkiliy omillar.*

Аннотация. В настоящих тезисах на основе компетентностного, системного и деятельностного подходов проанализированы факторы, влияющие на развитие учебно-познавательной компетентности студентов в условиях цифровой образовательной среды. По результатам сравнительного анализа педагогических исследований и современных концепций цифрового образования факторы, оказывающие влияние на развитие учебно-познавательной компетентности, систематизированы по четырём основным группам: педагогические, технологические, личностные и организационные. Предложен концептуальный подход, основанный на интеграции данных факторов, и обоснована их роль в развитии мотивационного, когнитивного, операционально-деятельностного и рефлексивного компонентов учебно-познавательной компетентности.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, учебно-познавательная компетентность, компетентностный подход, цифровая педагогика, педагогические факторы, технологические факторы, личностные факторы, организационные факторы.*

Abstract. This paper analyzes the factors influencing the development of students' learning and cognitive competence in a digital learning environment based on competency-based, systemic, and activity-oriented approaches. Through a comparative analysis of pedagogical research and contemporary concepts of digital education, the factors affecting the development of learning and cognitive competence were classified into four groups: pedagogical, technological, personal, and organizational. A conceptual approach based on the integration of these factors is proposed, and their role in developing the motivational, cognitive, operational-activity, and reflective components of learning and cognitive competence is substantiated.

Keywords: *digital learning environment, learning and cognitive competence, competency-based approach, digital pedagogy, pedagogical factors, technological factors, personal factors, organizational factors.*

Dunyoda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, balki talabalarda XXI asr kompetensiyalarini, xususan, mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish, muammolarni hal etish hamda kasbiy faoliyatda raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [6.2017: B.578].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'lim sifati ko'proq o'quv natijalari va shakllangan kompetensiyalar orqali baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quv-biluv kompetensiyasi talabani bilimlarni mustaqil egallashi, ularni tahlil qilishi, amaliy vaziyatlarda qo'llashi, o'z faoliyatini baholashi va uzluksiz o'zini rivojlantirishga tayyorligini ifodalovchi integrativ pedagogik xususiyat sifatida qaraladi [1.2003:B.60]. Mazkur kompetensiya motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi [2.2004:B.15].

Raqamli ta'lim muhiti ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv vositalari hamda adaptiv ta'lim tizimlari talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim natijalarini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi [3.2020:B.45]. Shu bilan birga, o'quv-biluv kompetensiyasining rivojlanishi faqat raqamli vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ularni samarali qo'llashni ta'minlaydigan pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy omillarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi [5.2023:B.22]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur omillarning birortasi yetarli darajada ta'minlanmasa, raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlaridan to'liq foydalanish qiyinlashadi. Shu sababli ushbu omillarni yagona pedagogik tizim sifatida o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish murakkab va ko'p omilli pedagogik jarayon bo'lib, uning samaradorligi pedagogik, texnologik, shaxsiy hamda tashkiliy omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Mazkur omillar alohida emas, balki yagona didaktik tizimning tarkibiy qismlari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida ushbu omillar o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlariga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Pedagogik omillar o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asosini tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim, loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirib, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltiradi [4.2021:B.34]. Mazkur omillar, avvalo, motivatsion va kognitiv komponentlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. O'qituvchining ta'lim jarayonini ilmiy asosda loyihalashi, individual yondashuvni qo'llashi hamda refleksiv faoliyatni tashkil etishi talabalarning mustaqil fikrlashi va o'z bilimni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.


Texnologik omillar raqamli ta'lim muhitining didaktik salohiyatini belgilovchi asosiy omillardir. LMS platformalari, virtual laboratoriyalar, elektron ta'lim resurslari, bulutli servislari, sun'iy intellekt vositalari va adaptiv o'qitish texnologiyalari ta'lim mazmunini individuallashtirish hamda uzluksiz teskari aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Shaxsiy omillar talabaning ichki imkoniyatlari va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Ichki motivatsiya, bilishga qiziqish, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, o'z-o'zini boshqarish va refleksiya o'quv-biluv kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ichki omillar hisoblanadi [7.2012:B.1070]. Raqamli ta'lim muhiti talabaning mustaqil ta'lim olishiga, individual o'quv trayektoriyasini tanlashiga hamda o'z o'quv natijalarini muntazam tahlil qilishiga imkon yaratadi. Natijada refleksiv komponentning rivojlanishi ta'minlanadi.

Tashkiliy omillar esa pedagogik va texnologik jarayonlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashqi shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy dasturiy ta'minot, elektron ta'lim platformalari, axborot xavfsizligi hamda o'quv-metodik resurslarning yetarliligi ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning raqamli kompetentligini muntazam rivojlantirish ham mazkur omillarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, mazkur omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Pedagogik omillar ta'lim mazmuni va metodlarini belgilasa, texnologik omillar ularni raqamli vositalar orqali amalga oshirish imkonini yaratadi. Shaxsiy omillar talabaning bilish faoliyatini faollashtiruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi, tashkiliy omillar esa ushbu jarayonning barqaror va samarali kechishini ta'minlaydi. Aynan ushbu integratsiya o'quv-biluv kompetensiyasining barcha tarkibiy komponentlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, o'quv-biluv kompetensiyasining rivojlanishi omillarning alohida ta'siri natijasida emas, balki ularning o'zaro integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi natijasida yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari asosida talabalarning o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish omillarining konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va raqamli pedagogika yondashuvlari tashkil etadi. Modelga ko'ra, pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy omillar yagona didaktik tizim sifatida o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli ta'lim muhitida talabalarining o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish omillarining konseptual modeli

Pedagogik omillar ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash mexanizmlarini belgilaydi. Texnologik omillar mazkur pedagogik jarayonni raqamli vositalar yordamida amalga oshirish imkonini yaratadi. Shaxsiy omillar talabaning bilishga bo'lgan ehtiyoji, ichki motivatsiyasi va mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtiruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi. Tashkiliy omillar esa pedagogik va texnologik jarayonlarning uzluksiz hamda samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida omillarning ketma-ket emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur konseptual model oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini loyihalash va fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda foydalanish mumkin. Taklif etilgan konseptual model omillarning o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda ularni yagona didaktik tizim sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini loyihalash, o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish hamda fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. Авторская версия. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
3. Полат Е.С. (ред.). Педагогические технологии дистанционного обучения: учебное пособие для вузов. – 3-е изд. – Москва: Юрайт, 2020. – 392 с.
4. Sharipov Sh.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari. – Toshkent, 2021. – 216 b.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 434 p.
6. Van Laar E., van Deursen A.J.A.M., van Dijk J.A.G.M., de Haan J. The relation between 21st-century skills and digital skills: A systematic literature review // Computers in Human Behavior. – 2017. – Vol. 72. – P. 577–588.
7. Ng W. Can we teach digital natives digital literacy? // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59, No. 3. – P. 1065–1078.